

INTERFAOL METODLARNING UMUMIY TASNIFI

Abdunazarova Gavhar Asliddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

E-mail@gavharabdunazarova16

Annotatsiya

Interfaol usullardagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan ahborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi

Kalit so‘zi: metod, o‘simlik, interfaol, ta‘lim texnologiyalari, innovatsion usul.

Bugungi kunda ta‘limning iqtisodiyligi va takomillashganligi o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi aloqalari, texnika va texnologiyalar ta‘limni interfaol metodlar asosida tashkil qilish hamda ta‘lim samaradorligini oshirishga katta e‘tibor berilmoqda.

Ta‘lim tizimida, ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish–ta‘lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Yoshlarni yangicha ishlashga va tafakkur yuritishga o‘rgatish davr talabi ekanligi yurtboshimiz tomonidan asoslab berildi.

Hozirgi kunda barcha ta‘lim muassasalarida o‘qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta‘lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarni mazmun-mohiyatini to‘liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo‘lishini ta‘minlashga ko‘maklashadi. Mazkur usullarning yangi-yangi ta‘lim usulariga tavsif beramiz.

Interfaol metod nima yoki nimani anglatadi?- Interfaol metodlar–shunday metodlarki, u o‘quvchi-yoshlarning o‘zaro muloqot va o‘zaro ta‘siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul. “Interaktiv” so‘zi ingliz so‘zidan olingan bo‘lib “Interakt”, ya‘ni “Inter” - bu “ o‘zaro”, “akt” - “harakat, ta‘sir, faollik” ma‘nolarini bildiradi.

Interfaol usullardagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan ahborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Hozirda yangicha metodlarni yoki innovatsiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish haqida to‘xtalganda interfaol usullarning o‘quv jarayonida qo‘llanishi tushuniladi.

Interfaollik–bu o‘zaro ikki kishi faolligi, ya‘ni, bunda o‘quv-biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (komp’yuter yordamida) yoki o‘quvchining o‘zaro muloqotiga asosan kechadi.

Interfaollik o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlaridan kechadi. Interfaollik o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi: o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishidir. U o‘zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o‘quv sifati va samaradorligini oshirishni ta’min etadi.

Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o‘quvchi chetda qolmaydi, ya’ni ular ko‘rgan, bilgan, o‘ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o‘zlashtirishda o‘zlarining shaxsiy hissasini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zaro bilimlar, g‘oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo‘ladi. Bunday holatlar o‘zaro samimiylikni taminlaydi, yangi bilimlar olish, o‘zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qullab-quvvatlash, o‘zaro do‘stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o‘quv jarayonida yakka tartibda va juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyixalar, rolli o‘yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Interfaol usullar nimalarni o‘z ichiga oladi? Hozirgi kunda quyidagi interfaol usulning shakl, formalari amalda qo‘llanilmoqda.

Interfaol usullarning shakllari:

- | | |
|-----------------------------|--------------------------|
| -Juftlikda ishlash; | Daraxt yechimi; |
| -Karusel; | O‘z nomimdan so‘zlayman; |
| -Kichik guruxlarda ishlash; | Fukarolar eshituvi |
| -Akvarium; | Rolli o‘yinlar; |
| -Tuganlanmagan gaplar; | Munozara; |
| -Aqliy hujum; | Debatlar. |
| -Braun harakati; | Tushunchalar tahlili |
| -Blits-so‘rov | Tanqidiy fikrlash |

Yuqoridagilardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko‘zda tutib, muammoni keltirib, o‘quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma’lum malakalarga ega bo‘lgan holatlarda qo‘llanilsa kutilgan natijalarni olish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qitish muhitini tashkil etiladi, qulay muhit yaratiladi, yahshi tashkil etilgan o‘qitish muhiti:

- o‘qish va tadqiqotlarga ko‘maklashadi;
- turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallarga ega buladi;
- ijodkorlik qobiliyatiga rag‘bat beradi;
- fikrlar va axborotlar almashuviga imkon yaratadi;

- ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, interfaol metodlar dastlab AKSh, Angliya, Fransiya, so'ngra Yaponiyada, 70-yillardan boshlab Rossiyada, 90-yillardan O'zbekistonda qo'llab kelinmoqda.

Biologik fanlarini o'qitishda, o'quv jarayonda yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, zamonaviy texnologik vositalar, kafedrani yetakchi professorlarining ma'ruzalari, tarqatma va ko'rgazmali (sifat va miqdor ko'rsatkichlarni o'rganish uchun zarur asbob-anjomlar)ni qo'llashni ko'zda tutadi.

Ma'ruzalar o'qishda muammoli, mualliflik, binar, vizual va boshqa interfaol shakllardan foydalaniladi. Bunda mavzu bo'yicha Powyer Point prezentatsiyalardan hamda aqliy hujum, blits so'rov va munozara kabi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

«O'simliklarning vegetativ ko'payishi» mavzusidagi seminar mashg'ulotlarida zamonaviy axborot texnologiyalari, mavzu bo'yicha prezentatsiyalar, internet ma'lumotlar, videoroliklar va “Stat” statistik dasturlar qo'llaniladi.

Shuningdek laboratoriya mashg'ulotlarida vaziyatli masalalar, »Domino», »Aqliy hujum», »FSMU-texnologiyasi», »Tushunchalar taxlili», «Klaster», «Kichik guruhlarda ishlash» «Loyiha», «Bumerang», «Assesment», «Bahs-munozara» BBB, “VEEN diagrammasi”, “Esse usuli”, «Keys Stadi» kabi pedagogik texnologiyalarni qo'llash tavsiya etiladi.

Interfaol metodlarning turlari

«Sinkveyn» metodi

Metodning maqsadi: «Sinkveyn» so'zi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, «besh misradan iborat she'r» tarjimasini beradi. Amaliyotda «Sinkveyn»: murakkab axborotlarni sintezlash quroli va tushunchalar zahirasini baholash vositasi; ijodiy ifodalilik vositasi sifatida juda foydalidir. «Sinkveyn» tayanch kasbiy tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor vosita hisoblanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: «Sinkveyn» tuzish qoidasi quyidagicha:

- birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi-odatda ot turkumidagi oid so'z bilan;
- ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan tasvirlanadi-sifat turkumiga oid ikki so'z bilan;
- uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan tasvirlanadi;
- to'rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko'rsatuvchi to'rtta so'zdan iborat gap yoziladi;
- beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonim shakllantiriladi.

“Assisment” texnikasi

Maqsadi: baholash, nazorat qilish, ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli aspektlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo’yicha tashhis qilinadi.

«Xulosalash» metodi

Metodning maqsadi: Bu interfaol metod murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo’yicha o’rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o’quvchilarning mustaqil g’oyalari, fikrlarini yozma va og’zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu metod umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan. Bu interfaol metod mavzuni o’rganishning turli bosqichlarida qo’llanilishi mumkin:

- mashg’ulot boshida: o’z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o’rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

INSYERT

Insert-lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo’lib, o’quvchilar tomonidan o’quv materialidagi asosiy g’oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida ko’llaniladi.

O’quvchilarni insert yordamida ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o’rganiladigan o’quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O’quvchilar har bir abzatsni o’rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi.

Agar abzatsda berilgan ma’lumot shu kungacha o’zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, "Bilaman"-V, agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo’lsa, u holda "Ma’qullayman" +, agar ma’lumotlar o’quvchilar o’zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda "O’rganish lozim"-, o’quvchilar o’quv materiallarini o’zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda "Tushunmadim" -? belgisini qo’yadi.

Insertda foydalaniladigan maxsus jadval

№	"Bilaman"	"Ma’qullayman"	"o’rganish lozim"	"Tushunmadim"
	B	+	-	?

1				
2				

Ta’lim-tarbiya jarayonida Insertdan foydalanishda quyidagi talablarga amal qilinadi:

- O‘quvchilar kichik guruxga ajaratiladi, lekin insert vositasida dastlab har bir o‘quvchi yakka tartibda ishlaydi va jadvalni to‘ldirishi, gurux a’zolari belgilangan muddatda ishlashni yakunlaganlaridan so‘ng, fikrlarini taqqoslashi;
- O‘quv bahsi orqali kichik gurux a’zolarining jadvaldagi belgilarining bir xil bo‘lishini ta’minlash, ya’ni jadvaldagi keyingi ikki ustuni bo‘yicha bir xillikka erishish;
- O‘qituvchi o‘quv materialini asosida tuzilgan savol-topshiriqlari va kichik gurux a’zolarining jadvaldagi belgilari asosida o‘quv bahsini tashkil etishi lozim.

Insert bilan ishlashning afzallik tomoni avval kichik gurux a’zolari o‘rtasida, so‘ng kichik guruxlar bilan o‘zaro o‘quv bahsi o‘tkazilishi, bahsda o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish, bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan o‘qituvchi tomonidan berilgan axborot ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Insertdan foydalanilgan o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi axborot manbai funksiyasi bir muncha kamayib, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish va nazorat funksiyalari ortadi. Shu sababli, o‘qituvchi bu masalalarni puxta rejalashtirishi va amalga oshirishi lozim.

Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamligini ta’minlash maqsadida Klasterdan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxat

1. Azizxo‘jayeva. N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003 y
2. Baratov P “Botanika” Toshkent, “O‘qituvchi”2002.
3. Belolipov. I. V. , Sheraliyev. A. , Buxorov. K. X. , Islamov. A. M. O‘simliklar morfologiyasi: O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, 2007, 99b.
4. Bo‘riev H. Ch. Havaskor bog‘bonlarga qo‘llanma. – T. , 1987.
5. G‘ofurov A. T va boshqalar. Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi. (O‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU. , T. : - 2005